



XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2025-yil 1- noyabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 26 801 tani tashkil etadi, shundan 23 309 tasi yoki 87,0 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir.

2024- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,6 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 96,3 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



Soni



O'sish sur'ati



	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	26 801	23 309	22 029
2024	27 461	24 201	23 010
2023	27 655	24 417	23 213
2022	28 393	25 121	23 941
2021	24 802	21 613	20 555

Tumanlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Urganch shahrida – 19,7 foiz, Urganch – 11,2 foiz, Xonqa – 8,1 foiz va Qo'shko'pir tumanlarida – 7,6 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Xiva shahri – 90,9 foiz, Yangiariq – 89,4 foiz, Urganch – 88,8 foiz hamda Xonqa – 88,6 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Bog'ot	1775	1533	1484
Gurlan	1685	1449	1390
Qo'shko'pir	2029	1768	1702
Urganch	2991	2656	2462
Hazorasp	1719	1468	1393
Tuproqqal'a	767	640	597
Xonqa	2159	1913	1818
Xiva	1761	1549	1503
Shovot	1693	1425	1365
Yangiariq	1898	1697	1651
Yangibozor	1190	1011	981
Urganch sh.	5273	4509	4091
Xiva sh.	1861	1691	1592

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)



Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi savdo tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- noyabr holatiga 32,1 foizni (36,8 foiz va 36,9 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar

Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 13,5% (15,3% va 15,7%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 12,3% (14,0% va 14,8 %).


Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ular umumiy sonining 57.9 % ni tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3302	3272	3257
Sanoat	3610	3571	3458
Qurilish	1496	1464	1290
Savdo	8598	8583	8127
Tashish va saqlash	1031	1021	926
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1720	1703	1496
Axborot va aloqa	476	461	453
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	796	586	528
Boshqa turlar	5772	2648	2494



I. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, 23 446 ta faol tijorat korxonalaridan 15 735 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari

Shundan kelib chiqib, MCHJ lar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.


	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	15 735	67,1
Xususiy korxonalar	3 799	16,2
Oilaviy korxonalar	3 733	15,9
Aksiyadorlik jamiyati	24	0,1
Boshqalar	155	0,7



II. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 195 ta korxonadan 65 tasi qo'shma korxona va 130 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 2024-yilning mos davriga nisbatan 53 taga oshgan. Bu asosan, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar sonining 3 tadan 22 taga (o'sish 19 taga), sanoat sohasida 35 tadan 50 taga (o'sish 15 taga) va savdo sohasida 42 tadan 52 taga (o'sish 10 taga) ko'payishi hisobiga to'g'ri keldi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	195	65	130
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	15	10	5
Sanoat	50	21	29
Qurilish	15	5	10
Savdo	52	13	39
Tashish va saqlash	5	2	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8	3	5
Axborot va aloqa	22	0	22
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	2	1
Boshqa turlar	25	9	16



Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 40 ta korxona bilan Rossiya Federatsiyasi egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,5 foizini tashkil etdi. Xorazm iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Turkmaniston (17,4%), Turkiya (16,9%), Xitoy (12,8%) va Qozog'iston (4,1) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	195	65	130
Xitoy	25	6	19
Rossiya	40	17	23
Turkiya	33	16	17
Qozog'iston	8	3	5
Buyuk Britaniya	1	0	1
Janubiy Koreya	3	3	0
AQSH	3	2	1
Turkmaniston	34	10	24
Pokiston	2	0	2
Yaponiya	5	3	2
Qirg'iz.Respublikasi	7	1	6
Hindiston	2	0	2
Boshqalar	32	4	28



III. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun ma'sul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
R.Urinov
(62) 224-61-29

Manzil:
220100, Urganch sh.,
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy
